


B-01-07/602
12.11.2025yil



Viloyat hokimligida o'tkazilgan yig'ilishning
B-01-07/602 - son BAYONI

Raislik qildi: M.B. Azimov - Qashqadaryo viloyati hokimi

Qatnashdilar: Viloyat hokimining tegishli o'rinbosarlari, kotibiyat mudirlari, viloyatdagi boshqarma, korxona, tashkilotlar rahbarlari va tuman (shahar) hokimlari (ro'yxat bo'yicha)

KUN TARTIBI:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 10-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i qabul qilinganining 34 yilligini keng nishonlash chora-tadbirlari to'g'risida" 214-son majlis bayoni ijrosi to'g'risida

(Azimov, Sayipov, Ismoilov, Qodirov, Qobilov, Zakirov, Karomova, Ravshanov,, Azimov)

Yig'ilishda qayd etilganidek, xalqimizni yagona maqsadlar, ulug' orzular sari birlashtirish, yosh avlod qalbida milliy g'urur, vatanparvarlik va sadoqat tuyg'ularini mustahkamlashda davlat ramzlari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois, bayrog'imiz, gerbimiz va madhiyamiz qabul qilingan kunlarni umumxalq bayrami sifatida keng nishonlash ezgu an'anaga aylangan.

Davlat ramzlari - bu bizning milliy o'zligimiz, mustaqilligimiz va suverenitetimizning muqaddas timsolidir. Ular yurtimiz tarixini, boy madaniyatini va kelajakka bo'lgan ishonchimizni mujassam etadi.

Kun tartibidagi masalani atroflicha muhokama qilib, yig'ilish

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 10-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i qabul qilinganining 34 yilligini keng nishonlash chora-tadbirlari to'g'risida" 214-son majlis bayoni rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi viloyat bo'limi (K.Karomova), O'zbekiston mahallalari uyushmasi viloyat boshqarmasi (O.Ravshanov), viloyat madaniyat boshqarmasi (I.To'rayev), O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi viloyat bo'limi (G'.Abdiyev)ning O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i qabul qilinganining 34 yilligiga bag'ishlangan tadbirlarini "Bir Vatan, bir el, bir bayroq!" shiori ostida milliy birlik,

hamjihatlik, yuksak vatanparvarlik bayrami sifatida viloyatimiz bo'ylab keng nishonlash to'g'risidagi taklifiga rozilik berilsin.

3. O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i qabul qilinganining 34 yilligiga bag'ishlangan tadbirlarini yuqori saviyada tashkil etish va o'tkazish bo'yicha viloyat tashkiliy qo'mitasi tarkibi **ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

4. Barcha tuman (shahar) hokimliklari, boshqarma, idora va tashkilotlar:

uch kun muddatda ushbu yig'ilish bayoni ijrosini samarali tashkil etish bo'yicha aniq, maqsadli chora-tadbirlarni belgilasin va unda quyidagi masalalarga alohida e'tibor qaratsin:

"Bir Vatan, bir el, bir bayroq!" shiori ostida madaniy, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, ijodiy uchrashuvlarni hududlardagi madaniyat va san'at maskanlari, harbiy qismlar, korxona, tashkilotlar, eng chekka, olis va chegara hududlar, mahalla, qishloq va ovul fuqarolar yig'inlarida yuqori saviyada tashkil etish;

Ishchi guruh taqdim etadigan yo'nalish va ssenariy asosida bayroq estafetasini yuqori saviyada tashkil etish va o'tkazish uchun zarur sharoitlarni yaratish hamda bu ishlarni hududiy tashkilotlarni jalb etish;

tuman (shahar) hokimliklari davlat bayrog'i qabul qilingan kun munosabati bilan elektron tasviriy targ'ibot vositalarini elektron ommaviy axborot vositalari hamda yo'l bo'ylaridagi barcha **LED ekranlarda** joylashtirish choralari ko'rish;

viloyat, tuman (shahar) markaziy ko'chalarida **18-noyabr kuni soat 10:00da** aholi vakillarini keng jalb qilgan holda Davlat bayrog'i bilan yurish marafoni va xalq sayllarini o'tkazish;

targ'ibot materiallarini (*maxsus videoroliklar, targ'ibot bannerlari va boshqa tashqi targ'ibot vositalarining shakllari*) barcha hududlarda namoyish etish va o'rnatish.

5. Viloyat mudofaa ishlari boshqarmasi (**Sh.Eshonqulov**), viloyat ichki ishlar boshqarmasi (**A.Ismoilov**), Milliy gvardiya viloyat boshqarmasi (**U.Azimov**) hamkor boshqarma va idoralar bilan birgalikda:

bayroq estafetasiga harbiy xizmatchilar, otliq guruhlar va orkestrni jalb qilsin;

17-18-noyabr kunlari viloyatimizdagi barcha harbiy qismlar, harbiy bilim yurtlari va boshqa huquq-tartibot muassasalarida **"Bir Vatan, bir el, bir bayroq!"** shiori ostida harbiy vatanparvarlik tadbirlarini o'tkazish choralari ko'rsin.

6. Viloyat madaniyat boshqarmasi (**I.To'rayev**) Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi viloyat bo'limi (**K.Karomova**), tuman (shahar) hokimliklari, boshqarma, idora va tashkilotlar bilan birgalikda viloyat hududlaridagi aholi gavjum joylar, markaziy maydonlar va madaniy maskanlarga ushbu sanaga bag'ishlangan keng qamrovli bayram konsertlari hamda madaniy-ma'rifiy tadbirlarni belgilangan tartibda yuqori saviyada tashkil etsin.

7. Viloyat kasbiy ta'lim boshqarmasi (**O.Movlanov**), viloyat maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi (**U.Oripov**), O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi viloyat bo'limi (**G'.Abdiyev**) **18-noyabr kuni** viloyatimizdagi barcha ta'lim

muassasalarida:

Davlat bayrog'iga hurmat ruhini shakllantirish, vatanparvarlikni ulug'lashga bag'ishlangan, bayroq tarixi va uning ahamiyatini ochib beruvchi videoroliklarni tayyorlab, namoyish etsin;

bayroq aks etgan ramzlar haqida bilimlarni mustahkamlash maqsadida viktorinalar tashkil etsin;

"Bayroq va fan" mavzusida fizika, kimyo va biologiya fanlari bilan bog'liq tajribalardan iborat ilmiy ko'rgazmalar o'tkazsin;

ijodiy yo'nalishda bayroq mavzusida mini-spektakllar, she'riy chiqishlar va sahna ko'rinishlarini tayyorlasin.

8. "Qarshi xalqaro Aeroporti" MCHJ (**U.Qurbonnazarov**), "Qarshi mintaqaviy temir yo'l uzeli" unitar korxonasi (**M.Mirzayev**), viloyat transport boshqarmasi (**B.Yazdanov**), tuman (shahar) hokimliklari, boshqarma, idora va tashkilotlar yurtimizda milliy ramzlarga bo'lgan hurmatni oshirish, bayramona kayfiyatni shakllantirish va fuqarolarda vatanparvarlik tuyg'ularini mustahkamlash maqsadida barcha temir yo'l vokzallari, vagonlar, aeroport kutish joylari va samolyotlar, shuningdek, transport boshqarmasiga qarashli hududlardan qatnaydigan avtobuslar, barcha ta'lim muassasalari hamda odamlar gavjum joylarni milliy bayroqlar bilan bezatish choralarini ko'rsin.

9. Milliy gvardiya viloyat boshqarmasi (**U.Azimov**), viloyat ichki ishlar boshqarmasi (**A.Ismoilov**), viloyat favqulodda vaziyatlar boshqarmasi (**F.Mirzayev**), viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi (**N.Qurbonov**) joylarda o'tkaziladigan tadbirlar davomida jamoat tartibini saqlash, yo'l harakati va yong'in xavfsizligini ta'minlash, tez tibbiy yordam xizmatini tashkil etish hamda favqulodda vaziyatlarning oldini olish choralarini ko'rsin.


10. Raqamli texnologiyalar vazirligi viloyat shu'basi (**S.Aripov**), Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi viloyat bo'limi (**K.Karomova**) **"18-noyabr - O'zbekiston Respublikasi davlat bayrog'i qabul qilinganining 34 yilligi kuni barchamizga muborak bo'lsin!"** degan jumalardan iborat SMS tabriklarni yuborish choralarini ko'rsin.

11. Viloyat teleradiokanali (**J.To'ychiyev**)ga bayram kunlari o'tkaziladigan tadbirlar, o'tkazilgan tanlovlarga yuborilgan eng sara ijodiy ishlarni davlat va nodavlat telekanallar orqali namoyish etib borish tavsiya etilsin.

12. Mazkur yig'ilish bayoni ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining birinchi o'rinbosari A.Qodirov va viloyat hokimining o'rinbosarlari A.Qobilov va A.Zakirov zimmasiga yuklansin.

Bayonlashtiruvchi

I.Norqulov

 (A.Qobilov)

**O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i qabul qilinganining
34 yilligiga bag'ishlangan tadbirlarini yuqori saviyada tashkil etish
va o'tkazish bo'yicha viloyat tashkiliy qo'mita
TARKIBI**

- | | |
|-----------------------------|--|
| 1. A.Qobilov | - viloyat hokimining o'rinbosari, <i>tashkiliy qo'mita raisi</i> |
| 2. A.Zakirov | - viloyat hokimining o'rinbosari, <i>tashkiliy qo'mita raisi o'rinbosari</i> |
| 3. K.Karamova | - Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi viloyat bo'limi rahbari, <i>tashkiliy qo'mita raisi o'rinbosari</i> |
| 4. O.Ravshanov | - O'zbekiston mahallalari uyushmasi viloyat boshqarmasi, <i>tashkiliy qo'mita raisi o'rinbosari</i> |
| 5. A.Ismoilov | - viloyat ichki ishlar boshqarmasi boshlig'i |
| 6. Sh.Eshonqulov | - viloyat mudofaa ishlari boshqarmasi boshlig'i |
| 7. U.Azimov | - Milliy gvardiya viloyat boshqarmasi boshlig'i |
| 8. I.To'rayev | - viloyat madaniyat boshqarmasi boshlig'i |
| 9. O.Movlanov | - viloyat kasbiy ta'lim boshqarmasi boshlig'i |
| 10. U.Oripov | - viloyat maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'i |
| 11. N.Qurbonov | - viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi boshlig'i v.b. |
| 12. S.Aripov | - Raqamli texnologiyalar vazirligi viloyat shu'basi boshlig'i |
| 13. V.Ro'ziyev | - viloyat sport boshqarmasi boshlig'i |
| 14. F.Muhammadiyev | - viloyat kambag'allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi boshlig'i |
| 15. G'.Abdiyev | - Yozuvchilar uyushmasi viloyat bo'limi raisi |
| 16. A.Axmedov | - Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi boshlig'i |
| 17. J.To'ychiyev | - viloyat teleradiokanali direktori |
| 18. <i>Lavozimiga ko'ra</i> | - viloyatdagi barcha oliy ta'lim muassasalari rektorlari |
| 19. <i>Lavozimiga ko'ra</i> | - tuman (shahar) hokimlari |
| 20. L.Qambarov | - Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi viloyat bo'limi bosh mutaxassisi, <i>tashkiliy qo'mita mas'ul kotibi</i> |

Izoh: tashkiliy qo'mita a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimlarga yangi ta'inlangan yoki zimmasiga tegishli funksiyalarni bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi.